



Mukaddas ISRAIL,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti professori, f.f.n

E-mail: israil19mukaddas@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, PhD S. Shamaqsudova taqrizi asosida

SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS NEWSPAPER AND JOURNALISTIC STYLE DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE OF UZBEKISTAN

Annotation

As you know, standard media in the newspaper language have a complex and dynamic nature. However, they are based on clear standards. These standards are especially evident in speech cliches. Standard sentences are standardized phrases that are often used in certain situations. Their use within the framework of the newspaper and journalistic style contributes to the rapid and accurate transmission of the content of the material. In this article, based on a sociolinguistic approach, a discursive analysis of the main factors that influenced the modern newspaper and journalistic style during the years of independence is made, based on factual material collected from texts related to the newspaper and journalistic style, an attempt is made to show the changes that occurred in our language after independence.

Key words: Newspaper language, newspaper text, newspaper and journalistic style, state language, discursive analysis, expressive means, spelling rules, Latin alphabet, sociolinguistic analysis, Uzbek language standards.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГАЗЕТНО-ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО СТИЛЯ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Как известно, в газетном языке стандартные средства имеют сложную и динамичную природу. Тем не менее, они основаны на четких стандартах. Эти стандарты особенно проявляются в речевых клише. Стандартные предложения – стандартизованные фразы, которые часто используются в определенных ситуациях. Их применение в рамках газетно–публицистического стиля способствует быстрой и точной передаче содержания материала. В данной статье на основе социолингвистического подхода сделан дискурсивный анализ основных факторов, повлиявших на современный газетно–публицистический стиль в годы независимости, на основе фактического материала, собранного из текстов, относящихся к газетно–публицистическому стилю, сделана попытка показать изменения, произошедшие в нашем языке после обретения независимости.

Ключевые слова: Язык газеты, газетный текст, газетно–публицистический стиль, государственный язык, дискурсивный анализ, выразительные средства, правила правописания, латинский алфавит, социолингвистический анализ, стандарты узбекского языка.

O'ZBEKİSTONDA MUSTAQİLLİK YILLARIDA GAZETA-PUBLİTSİSTİK USLUBINING SOTSIOLİNGVİSTİK TAHLİLİ

Annotatsiya

Ma'lumki, gazeta tilida standart vositalar o'zining murakkab va dinamik tabiatiga ega. Shunga qaramay ular aniq standartlarga asoslangan. Bu standartlar, ayniqsa, qolip jumlalar orqali namoyon bo'ladi. Standart jumlalar – bu muayyan vaziyatlarda ko'p qo'llaniladigan, standartlashgan iborallardir. Gazeta–publisistik uslubi doirasida ularning qo'llanilishi materialning mazmunini tez va aniq yetkazishga yordam beradi. Mazkur maqolada sotsiolingvistik yondashuv asosida mustaqillik yillarda zamонaviy gazeta–publisistik uslubga ta'sir etган asosiy omillarni diskursiv tahlilga tortilgan bo'lib, gazeta–publisistik uslubiga oid matnlardan yig'ilgan faktik materiallarga asoslangan holda mustaqillikdan keyin tilimizda ro'y bergan o'zgarsharni ko'rsatishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Gazeta tili, gazeta matni, gazeta–publisistik uslubi, davlat tili, diskursiv tahlil, ekspressiv vositalari, imlo qoidalari, lotin alifbosi, sotsiolingvistik tahlil, o'zbek tili standartlari.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, o'zbek tilining rivojlanishida bir qator muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar tilning turli jihatlarini qamrab olgan bo'lib, ularni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1989-yilda o'zbek tili O'zbekistonning davlat tili sifatida tan olindi. Bu holat tilning maqomini ko'tarish va uning davlat idoralarida qo'llanilishini kengaytirishga tutkti bo'ldi.

– 1993-yilda O'zbekiston lotin alifbosiga o'tish qarorini qabul qildi. Bu qadam o'zbek tilining boshqa jahon tillari bilan integratsiyasini oshirish va kompyuterlashtirish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida amalga oshirildi.

– Mustaqillikdan keyin OAVda yangi janrlar, mavzular va uslublar paydo bo'ldi, bu esa, tilning boyishiga olib keldi.

Davlat tomonidan o'zbek tilining standartlarini belgilash va unifikatsiya qilishga urinishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda yangi so'zlarning qabul qilinishi, imlo qoidalaring takomillashtirilishi kabi tadbirlar qo'lga olindi.

O'zbek tilida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni rivojlantirishga katta urg'u berildi. Bu jarayon milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilning sotsiolingvistika tadqiqiga qaratilgan nazariyalar Boduen de Kurtene, Y. D. Polivanov, Y. P. Yakubinskiy, V. M. Jirmunskiy, B. A. Larin, O. Shor, M. V. Sergiyevskiy, A. M. Selishev, V. V. Vinogradov, T. G. Vinokur, fransiyalik F. Bryuno, A. Meye, P. Lafarg, M. Koen, B. Gavranek, A. Matezius, J. Vandriyes va o'zbek tilshunosligida R. Dungurov, E. Begmatov [3], B. Urinboyev [11], A. Nurmonov, Yo. Tojiyev, N. Maxmudov [5], Sh. Iskandarova [4], M. Saidxonov [9], A. Omonturdiyev [7], A. M. Bushuy [1], Q. Rasulov, M. Kahhorov, S. Mo'minov, G. X. Rahimov [8], O. D. Nosirova [6], Y. Abdullayev [1], M. Y. Xojojeva [10] kabi olimlarning tadqiqotlarida atroficha yorilgan.

Tadqiqot metodoliyasi. Maqolada o'zbek media tilining shakllanish, rivolanish va hozirgi holatini sotsiolingvistika nuqtayı nazaridan komponent, kontekstual, diachronik va sinxronik, tasviriy-mazmuniy talqin va tahlil kabi an'anaviy usullar orqali hamda sotsiolingvistik metodlar – maydonli surish tekshiruvlari, anketalash metodlaridan foydalangan holda tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Tilda biror so'zning paydo bo'lishi yoki tildan chiqib ketishi u mansub bo'lgan jamiyatdagi

o'zgarishlarga bog'liqligini ta'kidlagan holda, tilimizga yangi tushunchalarining kirib kelishining nazorati til siyosati bilan hodisa ekanligini mustaqillikning ilk yillardan ko'rishimiz mumkin. OAV orqali o'zlashgan so'zlarni yangi tushunchalar bilan o'zbekchalashtirildi. Masalan, "televizor" – "oynai jahon"; "gazeta" – "ro'znama"; "samolyot" – "tayyora"; "aeroport" – "tayyoragoh" kabilar shular jumlasidandir: "OYNAI JAHON" DA KO'RING!"; "... oyndi jahonda ko'rinish bermoqda"; "Oynai jahonda ham kir yuvish kukuni targ'ibotida "Mukammal tabassum bo'lsa, murakkab dog'lar bilinmaydi", degan jumla juda uzoq aylandi" [22]; "Ro'znomamizning o'tgan yil 5-dekabr sonida yuqoridagi sarlavha ostida maqola chop etilgan bo'lib, unda Beruniy rayonidagi qo'yularni bo'rdoqiga bo'kish va qorako'lcha olish kompleksi qurilishi cho'zilib ketayotgani, shuningdek ozuqa bazasini mustahkamlash uchun sug'oriladigan maydonlar ajratilmayotgani tanqid qilingan edi" ("O'zbekiston ovozi". 4.01.1992) va h.k.

Hozirda ushu tushunchalar ma'naviyatimizdagi asosiy tushunchalardan biriga aylandi hamda "Ozodlik"; "Milliy o'zlik" tushunchalar bilan birga qo'llanildi: "Milliy o'zlikni anglash orqali, xalqimiz mustaqillikni qo'lg'a kiritdi, uning bebafo ne'mat ekanligini anglatdi"; "Bugun O'zbekistonda ilgari sodir bo'lmagan voqeliklar amalga oshmoqda, chuqr o'zgarishlar bizning hayotimizga ham shiddat bilan kirib kelmoqda"; "Bugun biz ozod va obod, osoyishta va mustaqil vatanda yashamoqdamiz".

"Demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, mustaqillikni mustahkamlash va saqlash, mamlakatda tinchlik va osoyishtalik, hududiy yaxlitlik va barqarorlikni ta'minlash..." ("O'zbekiston Ovozi". 18.11.1995) va h.k.

Shuningdek, bilan birga, gazeta matnida "mustaqillik"; "hurlik"; "ozodlik"; "taraqqiyot"; "poydevor"; "istiqbol"; "oriyat"; "sadoqat"; "osoyishtalik"; "totuvlik" kabi leksemalar paydo bo'ldi va ularning voqelanishi faollashdi. Masalan:

"O'zbekistonning kelajagi yaxshilik poydevoriga qurilmog'i shart. Chunki faqat yaxshilik boqiy yashaydi" va h.k. "Istiqbol – qulf, intizom uning kalitidir! Biz intizom deganda militsiyaning kaltagi, kazo-kazolarning do'q-po'pisalar, ochik eshilarning yopilishini nazarda tutmaymiz. Intizom insonning insonga, el-yurtga, qonunlarga, mas'uliyatga, tarix va davr oldidagi burchga, majburiyatga hummatidir". "O'zbekiston xalqlar o'rtaida birdamlik, demokratiya va hamkorlik ishiga yanada kattaroq hissa qo'shishiga aminmiz".

Shuningdek, o'zbek tilida qo'llana boshlagan "global geosiyosiy"; "chuqr transformatsiya"; "o'tkir muammolar" ruscha "globalnaya geopolitika"; "glubokaya tarsformatiya"; "ostraya problema" kabi tushunchalar o'zbek tilida kalka hisoblanadi. Masalan, "Hech bir mamlakat u kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi"; "... global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan"; "Dunyo tartibotida chuqr transformatsiya jarayonlari kechmoqda" va h.k.

Gazeta matnida siyosiy-ijtimoiy leksikaga yangi tushunchalarning kirib kelishi o'zbek tilini boyitishga xizmat qildi. O'zbekiston mustaqilligidan keyin "mahalla" instituti mamlakatning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rinni egalladi. "Mahalla" aslida mahalliy aholining an'anaviy jamoa birligi bo'lib, o'zaro yordam va hamkorlikning asosiy manbai hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati bilan mahalla instituti tashkil qilinishida "mahalla" so'zi turli mazmun kasb eta boshladи: "mahalla posboni"; "mahalla tizimi"; "mahalla raisi"; "Mahalla xodimlari"; "mahalla futbol yetakchisi"; "mahalla byudjeti"; "mahalla instituti"; "Obod mahalla"; "Mahalla yettiligi" kabilar shular jumlasidandir. Umuman olganda, "mahalla" O'zbekistonda mustaqillikka erishgan yillarda ham jamiatning asosiy tayanchi bo'lib, davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'yanaganini 2003-yilinig "Obod mahalla yili" deb e'lon qilinishida ko'rishimiz mumkin. "2003-yil "Obod mahalla yili" deb e'lon qilindi". ("Xalq so'zi". 18.12.2002).

Gazeta matniga murojaat qilamiz: "Mahalla instituti shuningdek, keksalarga g'amxo'rlik qilish, kam ta'minlangan oilalarga yordam berish, shuningdek, o'smirlar va yoshlar o'rtaida turli ijtimoiy muammolarning oldini olishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ham faol ishtirok etmoqda"; "Prezidentimizning "Mahallalar – davlatimizning eng

katta zamini" deb ta'kidlaganlari ham bejizga emas. Chunki mahallalar tom ma'noda xalqning dardini yengil qiluvchi, ularning ishonchli makoniga aylamoqda"; "Mahalla institutining jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnni hisobga olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadidagi 22-mart – "Mahalla tizimi oxdimlari kuni" deb e'lon qilindi"; "... mahalla "yettiligi" faoliyatini yo'lg'a qo'yish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda bir qator vazifalar belgilangan edi"; "... "mahalla yettiligi" qo'yan masalalarga yechim topishi, moliviyiy manbalarini hal qilib berishi alohida qayd etildi"; "... Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida amalga oshirilgan ishlar..."; "Farmonga muvofiq, murojaatlar bilan ishslash, aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha "mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla" prinsipi asosida hamkorlik tizimi joriy qilinib, quyidagilar mazkur tizimming asosiy yo'naliishlari etib belgilandi" [20]; "Yangi O'zbekiston". 19.01.2022 [23]; "Xalq so'zi". 04.04.2019).

O'zbek gazeta tilidagi o'zlashmalar o'ziga xos xususiyatiga ega. Mustaqillikdan keyin fan va texnologiyaning rivojlanishi, siyosiy va ijtimoiy tizimagi o'zgarishlar o'zbek tilini yangi o'zlashmalar boyishiga sabab bo'ldi. Darhaqiqat, tilga o'zlashmalarning kirib kelishi ko'pincha madaniy va siyosiy omillar bilan bog'liq hodisa. Masalan, o'zbek tiliga sovet davrida ko'plab rus tilidan so'zlar o'zlashgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin boshqa tillardan, ya'ni ingliz tilidan o'zlashmalar kirib kelgan.

Iqtisodiy terminlarning voqelanishi: "... daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingen mablag'larning bir qismimi tumanlar va shaharlar byudjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli" ("Xalq so'zi". 26.12.2023). Ushbu misolda prognoz, byudjet, daromad, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish singari iqtisodiy terminlar qo'llanilgan. Gazeta matni zamonaviy siyosiy voqealar va jarayonlarni aks ettirishga intiladi. Mustaqillikdan keyingi siyosiy jarayonni yoritishda o'zlashma terminlarga quyidagilar misol bo'la oladi: "xalqaro akkreditatsiya"; "konstruktiv hamkorlikni kengaytirish"; "O'zbekiston lideri"; "milliy Parlament"; "Senat faoliyati"; "fraksiya a'zolari"; "fraksiya yig'ilishi" va h.k. Ijtimoiy-siyosiy gazetalar matnida ularning voqelanishiga misollar keltiramiz: "Markaziy Osayo – AQSH" ("S5+1") formatidagi tashqi ishlar vazirlari uchrashuvu"; "Deputatlar inflyatsiyani jilovlash, pul-kredit siyosati mehanizmlari ta'sirchanligini oshirish kabi masalalarni atroficha ko'rib o'z takliflarini bildirishi"; "Singapurda "halollik vaksinasi" muallifi kim? O'zbekistonda-chi" ("Xalq so'zi". 2016-2020). Gazeta matnini shakllantirishda o'zlashmalarning o'ziga xosligi axborotning haqqoniyligi va qiyamatini belgilaydi.

Umuman olganda, siyosiy matn mediamatnining tarkibiy asosi sifatida qaraladi. Gazeta matni orqali siyosiy partiyalar, davlat rahbarlar, jamoat faollari, siyosiy jarayonlar faoliyatini auditoriyaga muayyan g'oyalarni targ'ib qilish, ta'sir ko'rsatish va ularni siyosiy harakatlarga undash orqali siyosiy vaziyatga ta'sir ko'rsatishga qaratiladi. Anglashiladiki, siyosiy matn tushunchasini, bиринчи navbatda, uning "hokimiyatni taqsimlash va qayta taqsimlash, siyosiy hokimiyatni zabt etish, ... jamiatning siyosiy tuzilishi, hokimiyat tuzilmasi, ... jamiatning siyosiy boshqaruvi bilan bevosita bog'liq bo'lgan dolzarb siyosiy muammolarni yoritish bilan bog'liq mavzusi bilan bog'laydilar" [2].

Gazeta matnida mustaqillik yillarida "sherikchilik munosabatlari"; "mintaqaviy munosabatlari"; "keskinlashgan vaziyat"; "Oq uy"; "tinchlik o'rnatish"; "davlat rahbari siyosati"; "mintaqaviy hamkorlik"; "Jahon tashqi siyosati"; "milliy manfaatlar"; "yuqori palata"; "mahalliy Kengash"; "tashqi siyosat"; "ichki siyosat" kabi siyosiy terminlar faollashdi. Masalan, "Prezident Shavkat Mirziyoyevning yaxshi qo'shnichilik siyosati sharofati bilan markaziy Osiyoda barcha jabbada o'sishga erishilmoqda" ("Xalq so'zi". 4.02.2020); "Yaqin qo'shnilar, hamkor va qardoshlar"; "YEI mintaqada kechayotgan o'zgarishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi" ("Xalq so'zi". 15.03.2018) va h.k.

"Tez sur'atlarda o'sadigan sherikchilik munosabatlari"; "Ijtimoiy siyosat aholi manfaatlariga xizmat qiladi"; "Milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq hamda puxta o'ylangan

siyosatni davom ettirishga alohida e'tibor qaratishimiz muhim ahamiyat kasb etadi" ("Xalq so'zi". 4.02.2021) va h.k.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ushbu faslda mustaqillikdan keyin gazeta matnlarida til vositalarining voqelanish dinamikasi, til birliklarida yuz bergan va berayotgan o'zgarishlar hamda o'zlashmalarning roli, shuningdek axborotning verbal vositalar orgali yetkazish samaradorligini tahlilga tortish negizida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida tilning rivojlanishi va o'zgarishiga munosabati katta ahamiyatga ega. Jumladan, gazeta matni yangi tushunchalarning voqelanishi va iste'molga kirib kelishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Har qanday tilda o'zlashmalar tilning lug'aviy tarkibini kengaytirishga va yangi tushunchalarni ifodalashga yordam beradi. Ma'lumki, o'zlashmalar asosan globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi natijasida tilga kirib keladi. O'zbek tiliga kirib kelgan asosiy o'zlashmalar ingliz, rus tillaridan bo'lib, ular asosan texnologiya, ilm-fan, madaniyat, siyosat va iqtisodiyot sohalariga oid so'zlardir. Gazetalarda shu turdag'i so'zlarning ishlatalishi gazetxonlarning yangi axborot va tushunchalarga tez moslashishiga imkon beradi.

3. Gazeta-publisistik uslubida ijtimoiy-siyosiy leksikanı shakllantirish jamiyatdagi dolzarb voqealar va munozaralarni aks ettiruvchi murakkab va dinamik jarayondir.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Ю., Бушуй А. М. Язык и общество. – Т.: Фан, 2002. – С. 373.
2. Алтунян А. Г. Анализ политических текстов. – М., 2006. – С. 11.
3. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик катламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 199.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулокот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Самарканд, 1993. – Б. 26.
5. Махмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. – 110 Б.
6. Носирова О. Д. Языковая ситуация в Республике Каракалпакстан. – М., 1997. – С. 98.
7. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Тошкент, 2000.
8. Рахимов Ф. Х. Инглиз тилининг Ўзбекистонда таркалиши (социолингвистик ва прагматик жиҳатлари). Филология фанлари доктори (DSc) дис... автор. – Тошкент, 2018. – Б. 99.
9. Сайдхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 26.
10. Хојиева М. Y. O'zbek tili so'z birikmalarida shaxs tavslifi (substansial va sotsiopragmatik aspektlarda). – Buxoro, 2023. – В. 64.
11. Ўринбоев Б. Сўзлашув нутки. – Тошкент; Фан, 1979. – Б. 36.
12. www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/
13. www.izoh.uz/uz/word/prezident
14. www.yuz.uz/news/tabassum-ham-mukammal-boladimi
15. www.kun.uz/kr/55968228
16. www.olymahad.uz/32206
17. www.qomus.info/encyclopedia/cat-i/istiqlol-uz/